

ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA BADIY TAFAKKUR MASALASI

Namazova Manzura Urakovna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy istiqlol davri she'riyati sof san'at talablari asosida yuzaga chiqqan, uslubiy o'ziga xoslikka ega, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayangan, inson qalbi evrilishlarini taftish etishga qaratilgan ko'ngil she'riyati ekanligi bilan sho'ro adabiyotidan keskin farq qilishi, Istiqlol davri badiiy tafakkuri yangilanishi davr, ijtimoiy muhit, jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishuv bilan bog'liq ekanligi, bunda ijtimoiylik o'rnini lirik qahramon – “men” egallashi, muallif pozitsiyasining o'zgarishi mavzu va g'oyaning yangilanishiga olib kelishi Rustam Musurmon va Amir Xudoyberdi ijodi misolida o'rganilishi aks etgan.

Abstract. In this article, the poetry of the period of national independence was created based on the requirements of pure art, has a unique style, is based on national and universal values, and is a poetry of the heart, aimed at examining the evolution of the human heart, and it is sharply different from Shura literature. That the renewal of the artistic thinking of the Independence period is related to the close familiarity with the period, social environment, and world literature, in which the place of sociality is taken by the lyrical hero – “I”, the change of the author's position leads to the renewal of the theme and idea, Rustam Musurmon and Amir Khudoyberdi's works are studied.

Kalit so'zlar: she'r, shoir, milliy ruh, istiqlol, davr, ijtimoiy muhit, ohang, ruh, nazm.

Key words: poem, poet, national spirit, independence, period, social environment, melody, spirit, poem.

Milliy istiqlol davri she'riyati sof san'at talablari asosida yuzaga chiqqan, uslubiy o'ziga xoslikka ega, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayangan, inson qalbi evrilishlarini taftish etishga qaratilgan ko'ngil she'riyati ekanligi bilan sho'ro adabiyotidan keskin farq qilishi Rustam Musurmon va Amir Xudoyberdi ijodi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, Rustam Musurmon she'riyatida xalq dostonlariga xos nazm va nasr aralash she'rlar, ijroga mo'ljallangan yangicha bitiklar, ko'hna aruz ohanglarini yodga soladigan kechinmalar, takror va hayqiriqqa to'la xitoblar va xalqona she'rlar borki, ularning barchasi shoir uslubining tobora takomillashib borayotganligini ko'rsatadi. Iste'dodli shoir Amir Xudoyberdi ijodida barmoq va aruz vaznida yozilgan she'rlar yetakchilik qilsa-da, keyingi davrda tobora o'z botiniga qaytishga urinayotgan, o'zi bilan olam o'rtasiga chegara qo'yib olgan, voqelikni idrok qilish uchun savol berayotgan yoki uni baholayotgan kishi emas, hamma muammoning o'zagini o'zidan izlayotgan insonning dard-u izzatlariga xos sinkretik ijod namunalari ham ko'plab yaratilayotganligi e'tiborga molik.

Misol: Shu o'rinda Rustam Musurmonning “Qonun yaratdi” deb nomlangan she'rini kuzataylik:

O-o-o-o-o...

O-o-o-o-o...

Koinot sarvari baxsh etdi hayot –

Odamizod uchun ochun yaratdi,

ochun yaratdi...

Bezavol bo'lgay deb dinu diyonat

Bu go'zal olamni mamnun yaratdi,

mamnun yaratdi...

Mazkur misralarda dunyoni, odamni Xudo yaratganligi va inson koinot sarvari degan fikr bor. Olam muayyan bir tartib, qoida asosida yaratilgan. Olam uyg'unlikdan iborat, har bir ma'voga munosib va xos dalil bo'lishi kerak. Inson ana shu mutanosiblik, uyg'unlikni buzishga harakat qilmasligi kerak. She'r matnida Qur'onda kelgan Qobil va Hobil qissasidan misol olingan. She'rning uch bandidan so'ng Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” asaridan “Qobil va Hobil” qissasi matni keltirilgan. She'r misralaridan buyuk Nizomni Olloh tuzadi, yaratish Ungagina xos, inson esa bitilgan taqdiriga ko'nikishga majbur, degan g'oyani anglash mumkin. Ikkinchi tomondan, O'zbekiston Konstitutsiyasida din, odamlar orasidagi mehr-muhabbat tuyg'usi, inson qadriga asosiy e'tibor

qaratilgan, degan ijodiy g'oya ifodalangan. She'rdagi asosiy urg'u "yaratdi" so'ziga yuklangan. Ya'ni, hamma mavjudotni, mehr-muhabbatni, olamni yaratuvchisi yagona Ollohdur, degan ma'noni uqamiz. Olamda yuz bergan ilk yovuzlikning sababini izlagan shoir, insonga berilgan eng oliy tuyg'u aqlni adolat yo'lida sarflash kerak, degan xulosaga keladi. Zero, adolat dunyoning charxpalak o'qi ekan, u oqil kishilar qo'lida bo'lishi kerak. Jamiyatni ham mukammal qonun bilan boshqarish shart. Qayerdagi, adolat mezoni buzilsa, qonxo'rliklar yuz berishi muqarrar ekanligidan ogohlantiradi shoir.

Amir Xudoyberdining "Usmon Nosir nidosi" she'rida mustabid tuzum qurboniga aylangan, o'z ta'biri bilan aytganda "bargdek uzilib ketgan" iste'dodli shoir Usmon Nosir dard-armonlari bayon qilingan:

*Chorlasang-da roz ayta, jonona, kelolmasman,
Hurlikka yetgach, qayta zindona kelolmasman.
Sayyoralar tegramda, quyosh manim chehramda,
O'lim bunda abadiy begona, kelolmasman.
She'r aytdim unda yonib, elni mendan qizg'onib,
Olib ketdilar Sibir tomona, kelolmasman⁴⁶.*

She'rda hurlik va ozod inson qalbining nidosi samimiy, rost, ishonarli ifodalangan. Uni kishanda saqlab turib bo'lmasligini, inson ruhini zanjirband qilib bo'lmasligini kitobxon darrov payqaydi va ko'nglida bir tasalli uyg'onadi.

*Dunyo – Azal o'trigi, o'lim – Diydor ko'prigi,
Erishdim Haqqa, endi Yolg'ona ko'nolmasman.
Usmon Nosir so'zim bir, Amir birlan o'zim bir,
U qalbin sharh etdi, men bahona, kelolmasman⁴⁷.*

1989-yilda yozilgan she'rda istiqlool sog'inchi, Usmon Nosir qismati bilan, muallifning orzulari bilan qo'shib yaxlit kartina hosil qilgan. Unda o'tmish va kelajak o'rtasidagi lirik "men"ning nafasi bor.

Rustam Musurmon va Amir Xudoyberdi ijodini o'rganish shunday xulosaga olib keladiki, ijtimoiy tarixiy davr ijodkor dunyoqarashi va ijod falsafasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda ijodkor konsepsiyasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Rustam Musurmon va Amir Xudoyberdining qator she'rlarida Vatan oliy qadriyat sifatida dunyo shoirlarining tilagida yashaydi. Vatan haqida she'r bitmagan shoir yoq'. Shu vatan deya Bobur qon yig'ladi, Furqat armonda o'tdi. Shu ma'noda, Rustam Musurmonning "Vatanim" nomli she'rini kuzatsak, unda musiqiylik ustunlik qilishini sezamiz. Sababi, shoirning xalqini, vatanini, ona tilini chin dildan sevishi, yurti tarixini chuqur bilishi, uning boshidan kechigan o'tmish tarixini qalbdan anglashi, faxrlanishi so'z bag'ridan sizib chiqib kuyga, evriladi:

*Odami Atoning nasliga beshik bo'lgan tog'larim,
Moma Havoning vasliga oshiq bo'lgan bog'larim,
Avliyolar isi kelgan mo'tabar tuproqlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay!⁴⁸*

Xalq ohanglarida bitilgan ushbu she'r misralari, ohangi o'quvchiga Jayhun, Sayhun mavjlarini, bobodehqonlar yetishtirgan bug'doyzorlar shovurini, o'zbekning tarovatli va serfayz to'ylarini, bolajon xalqimizning zahmatkash onalarini, mehnatini, fidoyi va bag'rikeng insonlarini eslatib, cheksiz faxr tuyg'usini tuydiradi. She'r misralari go'yoki qadim musiqa ohanglarida raqs tushayotgandek tasavvur uyg'otadi kishida. Matnda "Ohuvva-hay", "Vatanim-ay" so'zlaridagi "hay", "-ay" qo'shimchalari shoirning yurak qatlaridan chiqayotgan qiyqirig'ini yaqqol ifodalashga xizmat qilgan.

Milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarning badiiy talqini Rustam Musurmon she'riyatini ichdan nurlantirib va uni tutib kuch. Uning "Buyuk yo'l", "Uchinchi renessans poydevori", "Ona

⁴⁶Xudoyberdi Amir. Tahammul. Toshkent: Musiqa, 2015. 51-b.

⁴⁷Xudoyberdi Amir. Tahammul. Toshkent.: Musiqa, 2015.51-b.

⁴⁸ Musurmon R. Bir juft so'z. She'rlar. -Toshkent.: Adabiyot, 2022. 35-bet.

tilimda nutq”, “Ona tilim”, “Vatanim”, Termiz”, “Oqsaroy”, “Bunyodkorlik” singari ko‘plab she‘rlari fikrimizni to‘la tasdiqlaydi.

Rustam Musurmonning shakl va mazmun jihatidan yetuk she‘rlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu she‘rlarning mukammalligini ta‘minlagan bosh omil shoir adabiy-estetik qarashlari bilan chambarchas bog‘liq.

Rustam Musurmon barmoq vaznida ijod qilsa-da, bu she‘rlarning band tuzilishi xilma-xil.^{3, 4, 5} satrli bandli she‘rlar o‘z ichki ritmiga ega, ularda so‘z va ijodiy maqsad o‘zaro uyg‘unlashgan.

Masalan:

Sevaman–

“Elchiga o‘lim yo‘q, nogoh

Ishqnoma tutqazdi nigohlarimga.

Sevaman–

Xushxabar

Yo‘lladim alhol

Muhabbat mulkiga dilchilarimni.

“Sevaman” deb nomlangan mazkur she‘rda misralarning sinishini ko‘rish mumkin va bu albatta, ohang bilan bog‘liq uslubiy o‘ziga xoslik. Ushbu she‘rda 3, 4 va nihoyat she‘r yakunida ikki satrli band mavjud..

Malikam, kishanlab berdingiz darhol

Jallodlar ilkiga elchilarimni...⁴⁹.

Amir Xudoyberdi ijodini kuzatish shoirning Sharq va G‘arb adabiy an‘analarini puxta o‘zlashtirganligidan dalolat beradi.

Iymonsiz keksaning nasihatini tinglab,

Yerga yarim qarich cho‘kib ketdi tog‘ –

Andishasiz yoshlar poyi ostiga⁵⁰.

Uch satrda hayot falsafasi, inson umrining mohiyati jo‘qilingan. Tomchida quyosh aks etgani kabi shoir danakda bahorni, tiriklikni, hayotni ko‘radi. Birgina danakdan bir daraxt, undan esa butun boshli bog‘ hosil bo‘lishi mumkinligi haqidagi haqiqatni juda chiroyli tarzda ochib bergan:

Men danakni emas,

Butun boshli bog‘ni

*Chaqib yeyapman!*⁵¹

Rustam Musurmon esa uchliklarini “Vaqt panjarasi” deb atagan. Uning yozganlari Amir Xudoyberdining uchliklaridan mavzu jihatdan farq qiladi. Rustam Musurmon o‘zining ichki kechinmalarini qalamga olsa, Amir Xudoyberdi jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni tasvirlaydi.

Amir Xudoyberdi va Rustam Musurmon she‘rlarini kuzatilganda bittasida ilohiy-irfoniy g‘oyalarga moyillik, ikkinchisida sevgi-muhabbat, bunyodkorlikka eshlik namoyon bo‘ladi.

Rustam Musurmon ijodiy izlanishlarida *Humo, bog‘, qush, gul, ot, cho‘l, ovul, ko‘klam, vatan, sohil* singari betakror va o‘ziga xos obrazlar galereyasi uchrasa, Amir Xudoyberdi she‘rlarida *may, ko‘ngil, ishq, cho‘l, saksovul, daryo, tog‘, buta, qamish, to‘rg‘ay, shamshir, dala, dutor, bahor, oq qush, yoshlik, xotirot, umr, hayot, quyosh, dilbar, asqar tog‘, kuz, to‘qay, tabiat, ayriliq, yolg‘izlik* shoir ijodida eng ko‘p obrazlantirilgan. Ularda shoir ichki kechinmalari – metaforalar yordamida yuzaga chiqadi.

Amir Xudoyberdining “Vasiyat” nomli she‘rini kuzataylik:

Gar o‘lsam beshigimning

Yopinchig‘in yopinglar.

Yirtiq, yamoq bo‘lsa-da

Tobutimga yopinglar.

Ko‘rsinlar yig‘ilganlar,

Umrin bari xatodir.

⁴⁹ Musurmon R. Bir juft so‘z. Toshkent: “Adabiyot”, 2022. 269-b

⁵⁰ Amir Xudoyberdi. Evrilish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. 178-bet.

⁵¹ Xudoyberdi Amir. Tahammul. T.: Musiq, 2015.

*Olamda erishganim
Shu bir parcha matodir!..⁵²*

She'rdagi ijodkorning "men"i sezilib turadi; misralar balandparvozlik, yaltiroqlikdan xoli, unda o'z umri bilan vidolashishga tayyor insonning so'nggi so'zlari aks etgan. Satrlar atigi ikki yo uch so'zdan iborat, she'r yengil o'qiladi. Inson bu dunyodan orttirgan hamma narsani tashlab ketishga majbur, faqat savob va gunohlaridan tashqari. Uning umri mazmuni mana shu ikki qarama-qarshi harakati bilan o'lchanadi.

Xulosa qilib aytganda, Rustam Musurmon va Amir Xudoyberdi ijodi Istiqlol davri o'zbek she'riyatida o'zining munosib o'rniga ega. Har ikki ijodkor mustabid sho'ro zamonida tug'ilib, o'sha davr fojalarini o'z ko'zlari bilan ko'rib, mustabid tuzumning inson erkini va haq-huquqlarini oyoqosti qilganligini ko'rgan va bu ularning shaxs va ijodkor sifatida shakllanishiga, ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Shoir, avvalo, davr farzandi, uning asarlari qaysi mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar, zamon va muhit in'ikosi aks etishi tabiiy. Shoir ijodini tarixiy-ijtimoiy muhit va mafkuradan kelib chiqilgan bosqichlarga ajratish nihoyatda nisbiy, chunki uning ijodida g'oyaviy –estetik ideal, bosh pafos, botiniy ruh, uslub yaxlit va o'zgarmasdir. Bu bevosita ijodkor shaxsiyati va dunyoqarashi bilan individual hodisa ekanligi Rustam Musurmon va Amir Xudoyberdi she'rlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudoyberdi Amir. Evrilish. T.: Yangi asr avlodi, 2002. 139-b.
2. Musurmon R. Bir juft so'z. Toshkent: "Adabiyot", 2022. 269-b.
3. Amir Xudoyberdi. Evrilish. –T.: "Yangi asr avlodi", 2002. 178-bet.
4. Xudoyberdi Amir. Tahammul. T.: Musiqqa, 2015.
5. Xudoyberdi Amir. Tahammul. Toshkent: Musiqqa, 2015. 51-b.
6. Xudoyberdi Amir. Tahammul. Toshkent: Musiqqa, 2015. 51-b.
7. Musurmon R. Bir juft so'z. She'rlar. -Toshkent.: Adabiyot, 2022. 35-bet.

“O‘ZBEK TILIDA MUROJAAT VOSITALARI” MODULINI O‘TISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

*Nasim Xo'jayev Sadullayevich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Murojaatlar tizimidagi evolyutsiya ijtimoiy tuzilishdagi o'zgarishlarni, ma'lum bir kommunikativ akt paytida u yoki bu shaklni tanlashni belgilaydi hamda ushbu tanlovni belgilaydigan ijtimoiy vaziyat parametrlarini ko'rsatadi. Diaxronik ma'noda leksik vositalarni o'rganishning ahamiyati, til va jamiyatning o'zaro ta'siri tarixi nechog'li muhim ekanligini anglagan holda, murojaatlarni nafaqat kommunikativ pragmatik, shuningdek, tarixiy-tadrijiy rivojlanishi jihatidan ham kognitiv asoslarini tadqiq qilish lozim.

ANNOTATION. The evolution of the system of addresses determines the changes in the social structure, the choice of one or another form during a certain communicative act, and shows the parameters of the social situation that determine this choice. Realizing the importance of studying lexical tools in the diachronic sense, how important is the history of the interaction of language and society, it is necessary to research the cognitive bases of appeals not only in terms of communicative-pragmatic, but also in terms of historical-gradual development. In other words, integration of theories leads to integration of methods.

Kalit so'zlar: innovatsiya, texnologiya, muammoli vaziyat, pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi.

Key words: innovation, technology, problem situation, pedagogical technology, educational technology.

⁵²Xudoyberdi Amir. Evrilish. T.: Yangi asr avlodi, 2002. 139-b.